

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE PROBLEM OF ELECTRIFICATION IN TURKESTAN IN STATISTICAL PUBLICATIONS AND LITERATURE (20th–50th YEARS OF XX CENTURY)

Saidboboieva Gulzora Nematjonovna,

Docent of History faculty of the National University of Uzbekistan, DSc

Abstract. This article examines statistical publications and literature on the history of electrification in Turkestan, published in the 1920s-1950s. From a historiographic perspective, their content is analyzed, as well as the historiography of the topic and their significance for studying the socioeconomic history of the region.

Keywords: Turkestan, 20th century, 1920s-1950s, statistical publications, literature, electrification, energy, worker, industry.

STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna,

O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti dotsenti,
t.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Maqolada XX asrning 20–50-yillarida nashr etilgan va Turkistonning elektrlashtirish tarixiga doir statistik nashr va adabiyotlar ko'rib chiqilgan. Ularning mazmuni, shuningdek, mavzu tarixshunosligi, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganishdagi ahamiyati tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turkiston, XX asr, 20–50-yillar, statistik nashr, adabiyot, elektrlashtirish, energetika, ishchi, sanoat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N06>

Kirish. Jahonning fan va texnika sohasidagi yutuqlari, globallashuv jarayonlarining kuchayishi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va urbanizatsiyaning tezlashishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Elektr energetika sanoat va ijtimoiy soha o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, ularning texnik salohiyatini oshirishga zarur shart-sharoit yaratdi.

XIX asr oxiri–XX asr birinchi choragida Turkistonni elektrlashtirish muammosi bo'yicha bir qator turkum statistik nashrlar, yilnomalar chop etilgan bo'lib, ularda o'lkaning elektrlashtirish jarayoni atroflicha tahlil etilgan.

Tahlil va natijalar. Turkiston Respublikasi Iqtisodiy Kengashi (TurkEKOSO) ning I syezdi (1922) hisoboti ham qimmatli materiallarga boy bo'lib, unda o'lka sanoati, elektrlashtirishi haqida ma'lumotlar berilgan. Jumladan, "Toshtram" tresti tramvay va elektr stansiyani o'zida jamlab, Turkiston shart-sharoitida juda jiddiy korxona sanalib, mutlaq e'tiborga loyiqligi" [1; 27] ma'lum qilingan.

Turli yillarda chop etilgan statistik sharhlar va rasmiy hujjatlarda elektrotexnika sanoati ahvoli (1921), mamlakatni iqtisodiy rayonlashtirish, energetiklarning ijtimoiy ta'minoti, sanoat ko'rsatkichlariga ma'lumotlar uchraydi[2].

Xususan, elektrotexnika sanoatidagi ishchilar soni va tarkibi jihatidan yosh sovet davlati 1920-yilda 1912-yildagi ko'rsatkichlardan ham ancha past darajada bo'lganligini ko'rish mumkin [3; 28]:

Jami ishchilar (ming)	1912-yil	1913-yil	1919-yil	1920-yil
	400	360	225	250
Malakali (ming)	260	240	165	185
Malakasiz (ming)	140	120	60	65

Yuqoridagi holat Turkiston o'lkasi uchun ham xos bo'lib, muhandis-texnik mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlarni yetishmasligi soha rivojidadagi asosiy to'siqlardan biri bo'lgan. Bunga bir necha sabablar bo'lib, avvalo o'lkada o'zining haqiqiy kasbini astoydil yashirib, agar bilib qolishsa, qora ishchi, yuk tashuvchi, mardikor bo'lib kun kechirishdan ayrilib qolish xavfidan qo'rqqan juda ko'p sonli yuqori malakali ishchilar bo'lgan. Bunga avvalo mehnatga munosib haq to'lashning adolatsizligi sabab bo'lgan. Turkistonda muhandis oyiga 20-40 ming rubl maosh olgan bo'lsa, izvoshchi kuniga undan ikki marta ko'p topgan. "Hozirda muhandisga oilasini boqish uchun izvoshchi bo'lib xizmat qilishi foydaliroq ekanligi to'g'ri kelmaydi, – deb yozadi davr shohidi bo'lgan muallif. – Yana yaxshi chilangar qora ishchi sifatida ishlashi ham g'ayritabiiy. Buning uchun aybni ularga to'nkab bo'lmaydi. Malakali ishchilarning ishtirokisiz sanoatni tiklash, iqtisodiyotni jonlantirish, shuningdek, elektrlashtirishni olib borish amrimahol. Muhandis, professor, chilangar va umuman malakali mutaxassis izvoshchiga qaraganda to'q bo'lishi muhimroq" [4; 211].

Turkistondagi sanoat va elektr inshootlari hissadorlik jamiyatlari, o'lkada elektrotexnik inshootlarning qurilishiga doir ruxsat tartibi O'rta Osiyoning xalq xo'jaligiga oid statistik to'plamda batafsil yoritilgan [5; 1-23].

1918–1920-yillarga oid hujjatlar va materiallar asosida Sovet hokimiyati xalq xo'jaligini elektrlashtirish bo'yicha materiallarni tayyorlash ishlari revolyutsiyaning ilk oylaridayoq boshlanganligi, bu ishlar intervensiya va fuqarolar urushi yillarida ham davom ettirilib, 1920-yilda mashhur GOELRO rejasi bilan tugallanganligi bo'yicha rasmiy hujjatlar jamlangan to'plam ancha qimmatli ma'lumotlarga ega [6; 590].

Xalq xo'jaligini elektrlashtirish bo'yicha materiallarni tayyorlash ishlari revolyutsiyaning ilk oylaridayoq boshlangan. Mazkur ishlar qurolli intervensiya va fuqarolar urushi yillarida ham davom ettirilib, ilmiy hamda amaliy jihatdan sovet olimlari va texniklarining xalq xo'jaligini elektrlashtirish sohasidagi ishlari umumlashtirilib, Rossiyaning eng yaxshi ilmiy-texnik kuchlari jalb qilingan holda, alohida loyihalar hamda mamlakatning umumiy elektrlashtirish rejasini ishlab chiqish avj oldirdi va 1920-yilda GOELRO rejasi bilan tugallandi. Rejani Sovet hokimiyati mamlakat xalq xo'jaligi rivoji bo'yicha istiqbolli reja sifatida baholagan.

Turkistonni elektrlashtirish to'g'risidagi (1922-yil 25-aprel), Markaziy Elektrotexnika kengashi (SES) kuchli quvvatlar seksiyasi (1923-yil 31-iyul), Davlat Reja qo'mitasining O'rta Osiyo byurosi komissiyasi Xorazmni sug'orish bo'yicha elektrlashtirish ishlari haqida qabul qilgan (1924-yil 29-fevral) rasmiy qarorlari keltirilgan asar ham muammoni o'rganishda ancha ahamiyatli sanaladi [7; 542-547]. Turkistonni elektrlashtirish to'g'risidagi qarorda (1922-yil 25-aprel) asosiy e'tibor madaniy markazlarni elektrlashtirishga qaratilishi, bunda mavjud moslamalardan foydalanish va eski sug'orish tizimlarini tiklash, o'lkani elektrlashtirish rejasini

ishlab chiqish va energetika bo'yicha barcha masalalarni muvofiqlashtirish bo'yicha Turkiston Davlat Reja qo'mitasi huzurida energetika maxsus seksiyasini tuzish zarurligi ta'kidlangan [7; 542].

L.V. Fominaning maqolasida GOELRO rejasining ro'yobga oshirilishi va sanoat elektrlashtirilishining tiklash yillaridagi (1921–1925) holati statistik ma'lumotlar asosida tadqiq etilgan bo'lib, to'rt yil ichida, ya'ni 1918–1921/22-yillarda xalq xo'jaligini elektrlashtirish uchun 10,6 mln rubl ajratilgan bo'lsa, 1921/22–1924/25-yillarda esa bu miqdor 117,3 mln rublni tashkil etgani ko'rsatilgan [8; 62].

O'rta Osiyoning xalq xo'jaligiga bag'ishlangan statistik to'plamda 1913-yilda o'lkada 5,8 mln kilovatt soat, hozirgi Qirg'iziston va Tojikistonda esa elektr energiya ishlab chiqarilmaganligi qayd etilgan [9; 67, 70, 74]. 1913-yildagi elektrostansiyalarning quvvati 3 ming kVt, energiya ishlab chiqarishi 3,3 mln kVt soatni, 1924/25-yillarda esa bu raqamlar mos ravishda 8,5 ming kVt va 15 mln kVt soatga ortgan.

Umuman 1921–1990-yillarda SSSRda elektrlashtirish masalalari va Sovet davlatining energetika siyosatiga bag'ishlangan 5 mingdan ziyod monografiya, risola va maqolalar nashr etilgan bo'lib, ulardan 70 ta monografiya tarixiy-partiya va 190 tasi umumtarixiy mazmunda yozilgan; 100 dan ziyod nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan [10; 9].

Dastlab Turkistonda elektrlashtirish rejasi G.K. Rizenkamf rahbarligida V.V Aleksandrova-Zaorskaya, V.M. Buzinova, V.D. Jurin, A.M. Yestifeyev, YE.YE. Skorniyakov kabi taniqli iqtisodchi va muhandislar tomonidan o'lkaning alohida rayonlarini elektrlashtirish bo'yicha komissiya tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ma'ruzalaridan tashkil asarlar ham ancha qimmatli materiallarga boy [11; 37].

Shuningdek, G.K. Rizenkamfning yirik asari 1910–1918-yillarda Turkistonning sug'orish masalalarini o'rgangan ko'plab rus olimlari, muhandis, irrigator, gidrotexniklarining uzoq yillik tadqiqotlarining natijalarini o'zida bayon etgan [12; 147].

GOELRO rejasining ikkita dasturiy (A va B) bo'limlari mazmuni haqida G.M. Krizhanovskiy, B.A. Aleksandrovlarining asarlarida batafsil ma'lumot keltirilib, temir yo'llarni elektrlashtirish, urushgacha bo'lgan elektrlashtirish ko'rsatkichlariga erishish, 10-15 yil ichida 30 dan ziyod tuman elektr stansiyalarini bunyod etish rejalashtirilganligi bayon etilgan [13].

1939-yilda chop etilgan "Nauka v Uzbekistane za 15 let" nomli to'plamda energetikaning taraqqiyoti masalalari ham berilgan bo'lib, ularda ilk bor elektr stansiyalar Toshkentda tramvay qatnovi boshlangan davr (1914-yil)ga to'g'ri keladi deya, yangilish berilgan [14; 120].

Tarixchi V.Y. Nepomnin asarida o'lkadagi sanoat o'zgarishlari partiya rahbarligida amalga oshirilganligi ta'kidlansa, O'zbekiston tarixi qisqacha bayon etilgan K.Y. Jitov o'z kitobida mustamlaka va sovet hukumati o'lkadagi iqtisodiy islohotlarida paxtachilik hamda sug'orish tizimlariga ko'proq e'tibor qaratganini, S. Ziyodullayev va I. Manoxin ishlab chiqarish maqsadlari uchun elektr energiyasi deyarli ishlab chiqarilmaganligini yozadi [15].

B.A. Desyatchikovning o'tgan asrning 40-yillari oxiri–50-yillari boshida elektrlashtirish tarixiga doir qator asarlarida O'zbekistonni elektrlashtirish butun Sovet Ittifoqini elektrlashtirish rejasining uzviy bir qismi ekanligi, elektrlashtirish g'oyasining chuqur ma'nosi faqat xalq xo'jaligining hamma tarmoqlari – sanoat, qishloq xo'jaligi va transportda chuqur o'zgarish yasashdagina emas, balki sovet mamlakati hududini, hamma respublika, viloyat va

tumanlarni ham keng ko'lamda yagona elektrlashtirish rejasi ichiga olishdir, deb ta'kidlanadi [16].

A.V. Vinter asarida Rossiyada 50-yillarga qadar gidroelektrostansiyalar qurilishi tarixi batafsil yoritilgan bo'lib, XX asr boshlarida (1913-yil) Rossiya imperiyasi aholi jon boshiga hisoblaganda AQShdan 17, Germaniyadan esa 6 baravar kam elektr energiya to'g'ri kelishi qayd etilgan [17; 4].

Texnik olim G'. Rahimov o'z kitobida elektrlashtirish, elektr energiyasi va toki, elektr stansiyalari, ularning iste'molchilari haqida tayanch tushunchalar berilgan, Y. Kostikov va A.S. Dansigerning risolalarida insoniyat uchun uzoq yillardan beri xizmat qilib kelayotgan yoritish asbobi – elektr chiroq va uning afzalliklari, V.A. Yarotskiy asarida elektromagnit telegrafi tarixi, O'. To'laganov asarida esa elektr lokomotivlar haqida ma'lumot berilgan [18].

Muhandis I.N. Oranskiy asarida qishloq xo'jaligida elektr energiyani taqsimlash, qishloq joylarida elektr tarmoqlarini qurishning texnik masalalariga doir ma'lumotlar ochib berilgan [19; 67].

Sovet davrida chop etilgan yana qator asarlar mafkura tizmini ostida yozilgan bo'lishiga qaramay, elektrlashtirishga oid muhim ma'lumotlarni o'zida jamlagani bilan ahamiyatlidir [20].

Turkistondagi elektrlashtirish tarixi "Plan elektrifikatsii RSFSR" nomli to'plamda ham berilgan bo'lib (1955-yil), xususan, mazkur jarayonning Oktabr to'ntarishidan avvalgi holati, Toshkentdagi barcha elektr stansiyalar va ularning quvvati haqida kengroq va ancha ma'lumotlarga boyligi bilan avvalgi tadqiqotlardan farq qiladi. To'plamdagi Turkistonni elektrlashtirish rejasi, muqaddima, iqtisodiy lavha elektrlashtirish tarixi va istiqbollari haqida tasavvur berish imkonini beradi [21].

C. Qoraboyevning risolasida "og'ir industriyani har tomonlama rivojlantirish va butun xalq xo'jaligini elektrlashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va madaniy revolyutsiyani amalga oshirish asosida mamlakatni sotsialistik industrlashtirish ko'zda tutilgan"ligi, aynan paxtachilikni rivojlantirishda ham u asosiy omil ekanligi [22; 4], 1928-yilga kelibgina O'zbekiston sanoati yalpi mahsulot ishlab chiqarish jihatidan 1913-yildagi darajaga yetganligi ko'rsatilgan [22; 17].

Masalaga doir umumiy adabiyotlar doirasiga M.G. Vahobov, X.Sh. Inoyatov asarlarini kiritish mumkin [23]. Ularda o'lkaning mustamlaka va sovet davridagi iqtisodiy, sanoat ko'rsatkichlari, mintaqaga rus va chet el kapitalining kirib kelishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarga ko'rsatgan ta'siri va qisman o'lkada elektr stansiyalarning vujudga kelishi kabi masalalar yoritilgan.

Toshkent shahri bo'yicha turli yillarda chop etilgan qisqacha ma'lumotnoma-yo'lko'rsatkich va boshqa ilmiy adabiyotlarda uning sanoat tarixiga bag'ishlangan qismlarida elektrlashtirish tarixiga doir ma'lumotlar ham qisman bayon etilgan [24]. Bu asarlar shaharning sanoat, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini qamrab olgan, faktologik materiallarining boyligi bilan ajralib turadi.

Xulosa. XX asrning 20-yillaridan boshlanib, 50-yillariga qadar davom etgan elektrlashtirish tarixshunosligi sohadagi umumiy o'zgarishlar tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlar, elektrlashtirishda ilg'or sanalgan xorijiy mamlakatlarning statistikasi asosida emas, imperiya va sovet davrining ulkan tafovutlarga ega ko'rsatkichlari asosida taqqoslangan, jarayon asosan sotsialistik qurilishning ajralmas bir qismi sifatida baholangan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Отчет 1-го съезда экономических совещаний Туркеспублики / Составлен по стенографическим отчетам А.Н. Апухтиным, под ред. члена организационной комиссии съезда Д.П. Красновского. – Ташкент: Издание ТЭС, 1922.
2. *Qarang*: Русская электротехническая промышленность к началу 1921 г. – М.: Гос. техническое изд-во, 1921. – 28 с.; Экономическое районирование России. Доклад Госплана III Сессии ВЦИК. – М.: Издание ВЦИК, 1922. – 83 с.; Материалы Всероссийских промышленных переписей 1920 г. Вып. I. Список промышленных заведений г. Ташкента. – Ташкент, 1922. – 142 с.; Материалы Народного Комиссариата социального обеспечения. Ч. 1. – Ташкент, 1922. – 109 с.; Промышленная Россия 1923–1924 г. Справочная книга. Издание газеты «Экономическая жизнь». – Л., 1924. – 645 с.; Промышленность СССР в 1924 году. Ежегодник ВСНХ. Отчет III съезду Советов СССР. – М.: Центральное Управление печати, 1925. – 686 с.; Прилуцкий М.П. Бюллетень Волховской гидроэлектрической силовой установки №9. – Л., 1927. – С. 3.
3. Русская электротехническая промышленность к началу 1921 г. – М.: Гос. техническое изд-во, 1921.
4. Киуайн. Электрофикация Туркестанского края // «Военная мысль». – Ташкент, 1921. Август–декабрь.
5. Народное хозяйство Средней Азии в цифрах. – Ташкент: ЦСУ, 1930.
6. *Батафсил қаранг*: К истории плана электрификации Советской страны. Сборник документов и материалов 1918–1920 гг. / Под ред. И.А. Гладкова. – М.: Политиздат, 1952.
7. Развитие электрификации Советской страны 1921–1925 гг. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1956.
8. Фомина Л.В. Осуществление плана ГОЭРЛО и электрификация промышленности в восстановительный период (1921–1925 гг.) // Очерки по истории народного хозяйства СССР. Статистический сборник. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1959.
9. Народное хозяйство Средней Азии в 1963 году. Стат. сборник. – Ташкент: «Узбекистан», 1964.
10. Шамрай Н.Г. Проблемы электрификации страны и их исследование в историко-партийной литературе: 1917–1985 гг.: Автореф. дис... д-ра ист. наук. – М., 1990.
11. Электрификация Туркестанского района. Составлено Государственной Комиссией по Электрификации России. – М., 1920.
12. Ризенкамф Г.К. Проблемы орошения Туркестана. Вып. 1. – М., 1921.
13. Кржижановский Г.М. Об электрификации (Речь на 8-м съезде Советов). – М.: Государственной изд-во, 1921. – С. 11; Александров Б.А. Сталинский план преобразования природы в действии. – М., 1952. – С. 153.
14. Наука в Узбекистане за 15 лет (1924–1939). – Ташкент, 1939.
15. Непомнин В.Я. Из истории Советского Узбекистана. – Ташкент: Объединенное издательство ЦК КП(б) Уз. «Правда Востока» и «Кзыл Узбекистан», 1946. – 39 с.; Житов К.Е. Краткий очерк истории Узбекской ССР. Ташкент: Гос. изд-во УзССР, 1947. – С. 34; Зиядуллаев С., Манохин И. Социалистическая промышленность Советского Узбекистана. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1949. – С. 10.
16. Десятчиков Б.А. Ўзбекистонни электрлаштириш. – Тошкент: Ўздавнашр, 1949. – 83 б.; Его же. Электрификация Узбекистана за 25 лет. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1949. – 79 с.; Его же. Итоги и перспективы электрификации Узбекистана // «Звезда Востока». 1957, №1. – С. 96–105; Его же. Десятчиков Б.А. Итоги и перспективы электрификации Узбекистана. Окончание // «Звезда Востока». 1957, №2. – С. 133–140.

17. Винтер А.В. От первенцев советского гидроэлектростроительства к великим стройкам коммунизма. – М., 1951.
18. *Qarang:* Раҳимов Ғ. Электр. – Тошкент: Ўздавнашр, 1946. – 47 б.; Костиков Ю. Сихрли лампа. – Тошкент: Ўздавнашр, 1947. – 124 б.; Данцигер А.С. Электр лампа. – Тошкент: Ўздавнашр, 1953. – 45 б.; Яроцкий В.А. Электромагнит телеграф буюк рус кашфиётдир. – Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти, 1955. – 44 б.; Тўлаганов Ў. Ҳозирги замон локомотивлари (паровоз, тепловоз, электровоз). – Тошкент: Ўздавнашр, 1958. – 32 б.
19. *Qarang:* Оранский И.Н. Қишлоқ хўжалик электр тармоқлари. – Тошкент: Ўздавнашр, 1948.
20. Воеводин П.И. Электричество – важнейший рычаг в строительстве социалистического хозяйства (К 10-летию плана ГОЭЛРО). – М., 1931. – 53 с.; Надточеев Д.И. Ленинская политика первоочередная всемерного развития тяжелой индустрии и борьба партии за ее осуществлении. – М.: «Знание», 1955. – 48 с.; Лященко П.И. История народного хозяйства СССР. Т. III. Социализм. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1956. – 643 с.; Гладков И.А. От плана ГОЭЛРО к плану шестой десятилетки. – М.: Изд-во АН СССР, 1956. – 351 с.; Струmlin С.Г. Планирование в СССР. – М.: Гос. Изд-во полит. литературы, 1957. – 95 с.; Кржижановский Г.М., Стеклов В.Ю. Ленинский план электрификации в действии. – М.: «Знание», 1959. – 47 с.
21. План электрификации РСФСР (Доклад VIII съезду Советов Государственной комиссии по электрификации России). Второе издание. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1955.
22. Қорабоев С. Оғир саноат – Ўзбекистонда пахтачиликни ривожлантиришнинг моддий-техника базаси. Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти, 1958.
23. Вахабов М.Г. Ташкент в период трех революций. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1957. – 284 с.; Иноятов Х.Ш. Октябрьская революция в Узбекистане. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1958. – 319 с.
24. Хаиров А.Д. Ташкентская городская Дума в период трёх революций в Туркестане. Ташкент, 1948; Ташкент. Краткий справочник-путеводитель / Под общ. ред. Р.Г. Гуламова. – Ташкент: Гос. изд-во УзССР, 1957. – 184 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).